SHIMOLI-G‘ARBIY BAQTRIYADAGI ELLINIZM DAVRI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINING JOYLASHUVIGA DOIR YANGI YONDASHUV

Norboyev Ravshan Saydulla o‘g‘li
Termiz davlat universiteti magistranti
+998977859109; ravshan2843@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20071681

Annotatsiya: Shimoli-g‘arbiy Baqtriya(Surxon vohasi)dagi ellinizm davri arxeologik yodgorliklari mintaqaning turli qismlarida va har xil relyef shakllarida joylashgan. Ushbu tadqiqot ishida Surxon vohasining eng chekka va eng ichki hududlaridagi aholi manzilgohlarining joylashuvi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: shimoli-g‘arbiy Baqtriya, Boysuntog‘ tizmalari, Amudaryo, Sheroboddaryo, Surxondaryo, arxeologik yodgorliklar, manzilgohlar.

Аннотация: Археологические памятники эллинистического периода в северо-западной Бактрии (Сурханский оазис) расположены в разных частях региона и имеют различную форму рельефа. Данная исследовательская работа проливает свет на расположение поселений в самых отдаленных и внутренних районах Сурханского оазиса.

Ключевые слова: северо-западная Бактрия, хребты Байсунтог, Амударья, Шеробаддарья, Сурхандарья, археологические памятники, поселения.

Annotation: Archaeological monuments of the Hellenistic period in northwestern Bactria (Surkhan oasis) are located in different parts of the region and in different relief forms. This research work sheds light on the location of settlements in the most remote and innermost areas of the Surkhan oasis.

Keywords: northwestern Bactria, Baysun Montains, the Amu Darya, Sherabad Darya, Surkhan Darya, archaeological sites, settlements.

Kirish. Surxon vohasi – hozirgi O‘zbekiston Respublikasi janubidagi Surxondaryo viloyati hududi hisoblanadi. Bu voha tabiiy-geografik chegaralari bilan alohida ajralib turadi. Xususan, Surxon vohasining g‘arbiy qismida Ko‘hitangtog‘ tizmalari tabiiy chegara bo‘lsa, shimoliy chegarasi Boysuntog‘ va Hisor tizmalari orqali o‘tadi. Surxon vohasi sharqda ham tog‘lar - Bobotog‘ tizmasi bilan hamda janubda Amudaryo(Oks) o‘ralgan tabiiy landshaft chegaralarga ega ekanligi alohida, o‘ziga xos xususiyati sanaladi. Bu mintaqada muhim ahamiyatga ega ikkita daryoni aytish o‘rinli bo‘ladi. Bular: Surxondaryo va Sheroboddaryo. Qadimdan kichik hududlarda shakllangan xo‘jaliklar va aholi manzilgohlari ellinizm davrida ham ushbu ikki yirik daryolar atrofida joylashganini ko‘rish mumkin. Shimoli-g‘arbiy Baqtriyaning ellinizm davri arxeologik yodgorliklari joylashuviga ko‘ra shartli ravishda ikki qismdan bo‘linadi. Bularning birinchisi, Surxon vohasining g‘arbiy qismida joylashgan ellinizm davri arxeologik yodgorliklari bo‘lib, geografik jihatdan Ko‘hitangtog‘, Boysuntog‘, Sheroboddaryo vodiysi va uning atrofidagi soylar, shuningdek, Amudaryoning o‘rta oqimi o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab joylashgan ellinizm davri arxeologik yodgorliklarini qamrab oladi. Ikkinchi, Surxon vohasining sharqiy qismida joylashgan ellinizm davri arxeologik yodgorliklari esa, Surxondaryo daryosining yuqori oqimidan boshlangan va ushbu daryo vodiysi, uning sharqiy tomonida joylashgan ellinizm davri arxeologik yodgorliklarini, bundan tashqari Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, Payg‘ambar orolidan sharqda joylashgan ellinizm davri aholi manzilgohlaridan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Surxondaryo viloyati hududidagi ellinizm davri arxeologik yodgorliklarining joylashuviga doir adabiyotlar ko‘pgina bo‘lib, bunday adabiyotlar ham XX asr davomida, ham mustaqillikdan so‘ng nashr etilgandir. Jumladan, E.V.Rtveladzening O‘zbekistonning janubidagi qadimgi Baqtriya yodgorliklarining joylashuviga bag‘ishlangan maqolasi, O‘zbekiston-Chexiya hamkorlik tadqiqotlari natijasi sifatida nashr etilgan “Sherabad Oasis” kabi to‘plamlar, shuningdek, mustaqillik davrida yangi aniqlangan manzilgohlar bo‘yicha hisobotlar ushbu tadqiqot ishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu maqola tarixiylik, aniqlik, tabiiy-geografik tahlil va xolislik metodlari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. ***Surxon vohasining g‘arbiy qismida joylashgan ellinizm davri arxeologik yodgorliklari.*** Avvalo, Surxon vohasining g‘arbiy qismidagi ellinizm davriga oid aholi manzigohlarining joylashuviga e’tibor qaratsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, bu hudud orqali O‘rta Osiyoning ichki mintaqalariga muhim tranzit va savdo yo‘llari o‘tgan.

Surxon vohasining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan va Baqtriyaning shimoli-g‘arbiy chegara istehkomlari tizimini tashkil etuvchi ellinistik manzilgohlar asosan, ellinizm davri boshida, Yunon-Makedon qo’shinlarining istilosi davrida bunyod etilgan hamda shimoldan xavf solgan ko‘chmanchilarga qarshi kurash vositasi bo‘lib xizmat qilgan[14]. Bu mudofaa chizig‘idagi ilk bosqich **Darband devori** bo‘lib, u So‘g‘diyonadan Baqtriyaga eshik vazifasini bajargan[12]. Chiziq ko’rinishida qurilgan bu inshoat bir yarim kilometrga cho‘zilgan[18].

Darband devoridan janubda ushbu devorda xizmat qiluvchi qo‘shin garnizoni **Uzundara** qal’asi joylashgan[5]. U nomini yaqinidagi daradan olgan. Uzundara qal’asi strategik ahamiyatiga ko‘ra eng muhim harbiy istehkom deya e’tirof etilishiga arziydi. Chunki, bu arxeologik yodgorlik ko‘p sonli qo‘shin harakatlanishi mumkin bo‘lgan darani nazorat qilish uchun bunyod etilgan[13]. Maydoni 2 gektar va to‘rtburchak asosli rombsimon ko‘rinishda. Darband devori hamda Uzundara mudofaa inshoatlari ellinizm davri boshidayoq barpo qilingan joylar hisoblanadi[16].

Uzundaradan janubda **Machayqo‘rg‘on, Qapchig‘aytepa, Daxna-i-Jom, Poyonqo‘rg‘on**[1]**, Qo‘rg‘onzov** va **Munchoqtepa** qal’alari mustahkam chegara istehkomlari tizimini tashkil etadi.

Ushbu nomlari keltirilgan arxeologik yodgorliklarning eng yirigi **Poyonqo‘rg‘on** bo‘lib, u 0,7 gektar maydonda, tabiiy tepalik ustida joylashgan[2][4]. **Qapchig‘aytepa** ham muhim harbiy qal'a bo‘lganini uning soy bo‘yida va tepalik ustida insho etilgani hamda nisbatan katta maydonga ega (0,6 ga) ekanligi bilan tasdiqlash mumkin.

Sheroboddaryoning yuqori oqimida noodatiy ko‘rinishga ega bo‘lgan, 0,1 gektar maydonni egallagan navbatdagi ellinizm davri arxeologik yodgorligi **Machayqo‘rg‘on.** Bu yodgorlik ham yo‘l bo‘yida joylashtirilgan.

Daxna-i-Jom harbiy qal’asi Qapchig‘aytepa va Poyonqo‘rg‘on istehkomlari oralig‘idagi yo‘llar ikki tarmoqqa ayrilgan joyda barpo etilgan. Bu qal’a ham ancha kichik, 0,35 gektar.

Qal’alar, asosan, to‘rtburchak va kvadrat rejaga ega bo‘lgani holda, aylana shaklda qurilgan **Qo‘rg‘onzov** qal’asi diqqatga sazovor. Chunki, bu joy tabiiy tepalik ustida insho etilgan hamda dushman haqida ogohlantirish vazifasini bajarishi ko‘zda tutilgan. Qo‘rg‘onzov hududi juda kichik, 0,13 ga, lekin himoya uchun qulay imkoniyatlarga ega bo‘lgan[22].

Tabiiy chegarani tashkil etuvchi tog‘lardan uzoqroqda, adir va tekisliklarga yaqin hududda joylashgan **Mirzaliqo‘rg‘on** tog‘li hudud uchun normal bo‘lgan 0,5 gektar maydonga ega. Mirzaliqo‘rg‘on hamda Shimoli-g‘arbiy chegara istehkomlari tizimining eng ortda joylashgan **Munchoqtepa I** va **Munchoqtepa** II kabi qal’alar mudofaa tizimining bir qismi bo‘lgan holda, asosan, mahalliy o‘troq aholi ustidan nazoratni amalga oshirish punkti sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan deb aytish o‘rinli[15]. Shuningdek, chegara istehkomlari uchun madad qo‘shin kelganda dastlab Mirzaliqo‘rg‘on, so‘ngra keyingi qal’alarga yo‘l olishi ham bu qal’aning vazifasi hisoblangan.

Mirzaliqo‘rg‘on qal’asidan shimoli-sharqda, harbiy istehkomlarga eng yaqin manzilgohlardan biri **Iskandartepa** topilgan va o‘rganilgan. Bu arxeologik yodgorlik normal aholi punkti bo‘lgan, uning maydoni 2 gektar.

Shimoli-g‘arbiy tog‘ tizmalaridan janub va sharqqa tomon pastga tushilganda Sheroboddaryo vodiysi va uning atrofidagi kichik vohalar boshlanadi. Bu hududdagi eng yirik aholi manzilgohi bu **Jondavlattepa** shahri edi. Uning maydoni 6 gektar va Sheroboddaryo qirg‘og‘ida joylashgan[20]. Bu joy karvon yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan va daryo orqali a’loqa ham yo‘lga qo‘yilgan.

Hozirgi Sherobod shahrining atrofida **Cho‘ponotatepa** va janubroqda **Dombiratepa** kabi arxeologik yodgorliklar mavjud.

Sherobod shahridan janubga tomon arxeologik yodgorliklar soni ko‘payadi hamda ularning maydoni ham nisbatan kattaroq bo‘lib boradi. Masalan, **Nog‘oratepa** 2 gektar, **Qulluqshohtepa** va undan 15 kilometrcha g‘arbroqda joylashgan **Tallashqontepa II** manzilgohlari 5 gektar atrofidagi maydonni band qilgan[19][21].

Sherobod vohasining g‘arbiy qismida Ko‘hitangtog tizmalaridan keluvchi soylar bo‘ylab yana ikkita arxeologik yodgorlik aniqlangan. Bulardan **Dabilqo‘rg‘on** 3 gektar maydonda va er. av. I ming yillikning o‘rtalaridan o‘rta asrlarga qadar faoliyat yuritgan hamda **G‘ishttepa** manzilgohi juda kichik 0,12 gektar bo‘lib, aynan ellinizm davrida asos solingani aniqlangan[6][8].

Surxon vohasining yirik markazlaridan bo‘lgan Termiz va Sherobod oralig‘idagi kichik vohada ham Ahamoniylar hukmronligi davrida vujudga kelib, ellinizm davrida ham faoliyat yuritgan hamda ellinizm davrida yangi paydo bo‘lgan aholi manzilgohlari mavjud. Hozirgi Sherobod va Termiz shaharlari o‘rtasidagi yo‘lning markazida barpo etilgan Angor shahri atrofida ellinizm davri arxeologik yodgorliklarini uchratish mumkin. Bu manzilgohlarning eng shimolda joylashgani **Oysaritepa** xo‘jalik manzilgohi bo‘lib, uning maydoni 0,5 gektar atrofida. Bu arxeologik yodgorlik mintaqaning ellinizm davridagi oddiy aholi hayotini ochib berishda hissasi kattadir.

Oysaritepa xo‘jalik manzilgohi bilan maydoni, ko‘rinishi va hattoki xronologik davri ham deyarli bir xil bo‘lgan arxeologik yodgorlik **Sho‘rtepa** ham Angor shahri atrofida bunyod etilgan.

Yuqoridagi ikki kichik aholi manzilgohlaridan 15 kilometrga yaqin masofada joylashgan **Zartepa** arxeologik yodgorligi o‘rnida ellinizm davrida yirik shahar bo‘lganligi aniqlangan. Bu shaharning maydoni 17 gektarni tashkil etadi va Termiz-Sherobod yo‘lida to‘xtash joyi bo‘lib xizmat qilgan.

Surxon vohasining janubi-g‘arbida joylashgan Muzrabot tumani hududi qadimdan cho‘l-dasht zonadan iboratligi, aholi soni ancha kamligi hamda mintaqada yashash uchun qulay joylar ko‘p bo‘lgani bois aholi manzilgohlari deyarli kuzatilmagan. Bu kichik mintaqada Axamoniylar, Ellinizm va hatto Kushon davrida ham bir manzilgoh yaqin-atrofda qayta qurilganini kuzatamiz. Bu manzilgohlar Amudaryoning Sho‘rob kechuvida, o‘ng qirg‘oqda qurilgan. Ushbu kechuvda aytishga arzigulik ellinizm davri arxeologik yodgorligi **Kampirtepa** qal’asi hisoblanadi. Ushbu aholi punktining maydoni taxminan 4 gektarni tashkil etadi[11]. Bu arxeologik yodgorlikning janubiy qismi bo‘ylab deyarli tik holatdagi jarlik o‘tadi. Shuning uchun Kampirtepa ustida tadqiqotlar olib borgan barcha tadqiqotchi olimlar manzilgohning janubiy qismi buzilib ketgan degan xulosa beradilar. Ammo, ushbu aholi manzilgohi yaqinidagi qishloq aholisining taxminiy og‘zaki ma’lumotlariga ko‘ra, bundan ikki ming uch yuz yil avval Amudaryo(Oks) Kampirtepaning yonginasidan oqqan degan fikrni ilgari surish mumkin. Kampirtepa qal’asi hozirgi ko‘rinishi bo‘yicha yarimaylana tuzilishga ega. Kampirtepaning joylashuvi muhim ahamiyatga ega ekanligini undan oldin, Ahamoniylar hukmronligi davrida barpo etilgan Sho‘rtepa va Yuechji-kushonlar davrida qurilgan Sho‘robqo‘rg‘on manzilgohlarining ham aynan Amudaryoning Sho‘rob kechuvi o‘ng qirg‘og‘ida, Kampirtepa arxeologik yodgorligi yaqinida bunyod etilgani yaqqol namoyon qiladi.

Shimoli-g‘arbiy Baqtriyaning sharqiy qismida joylashgan Ellinizm davri arxeologik yodgorliklarining qurilgan joyi Baqtriyaning chegara hududlaridan ancha uzoqda bo‘lgani uchun, asosan, tinch aholi yashashi uchun mo‘ljallangan. Ushbu mintaqaning Surxondaryo yuqori oqimida joylashgan yirik aholi manzilgohlaridan biri bu – Xolchayon hisoblanadi. Bu manzilgoh yettita tepalikdan iborat bo‘lib, uning boshqa bir nomi Qorabog‘tepa. Hozirga qadar Xolchayon yodgorligining 2 ta tepaligi Qorabog‘tepa va Xonaqohtepada arxeologik tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu yerda hozirgi kunda tadqiqot o‘tkazish juda qiyin, chunki, arxeologik yodgorlik hududida hozir aholi uylari mavjud. Xolchayontepadan ancha olisda, shimoli-sharqda, kichik bir aholi manzilgohi joylashgan, bu – **Qo‘yto‘rabektepa**. Ushbu yodgorlik hozirda aholi uylari tagida qolib ketgan. Bu joyning umumiy maydoni 0,35 gektarni tashkil etishi aniqlangan.

Hozirgi Denov shahridan g‘arb va janubi-g‘arbda **Qo‘rg‘ontepa** va **Surpatepa** kabi manzilgohlar joylashgan bo‘lib, bulardan Surpatepa juda kichik 0,2 gektar va Qo‘g‘ontepa nisbatan yirikroq – 2 gektar maydonni egallaydi.

Shuningdek, Surxondaryoning yuqori oqimida **Xolniyoztepa** va **Kira-Kira** kabi ellinizm davriga tegishli bo‘lgan arxeologik yodgorliklar ham joylashgan.

Biroq, Ellinizm davri boshlanishi bilan, qisqa vaqt ichida Qiziltepa o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Shunday bo‘lsa-da, bu manzilgohda ham ellinizm davri qatlamlari mavjud.

Qiziltepadan sharqroqda joylashgan **Dalvarzintepa** aynan ellinizm davrida ilk bora qurilishi boshlangan. Bu aholi manzilgohi 47 gektar maydonni egallaydi[7], dastlabki, qurilgan vaqtida uning qal’a qismi mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, Dalvarzintepa ellinizm davrida shimoli-g‘arbiy Baqtriyadagi eng yirik va ko‘zga ko‘ringan shaharlardan bo‘lgani aniq[10].

Dalvarzintepadan bor-yo‘g‘i 500 m masofada joylashgan **Jo‘raboytepa,** shuningdek, **Eshonbobotepa** va **Jartepa** manzilgohlarining ham quyi qatlamlarida ellinizm davri moddiy madaniyati mavjud.

Hozirgi Bandixon tumani hududi Surxondaryo(Surxon vohasi)ning eng markaziy qismi hisoblanadi va ushbu hudud Surxondaryo daryosining o‘rta oqimi g‘arbiy tomoniga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun, bu kichik mintaqani shimoli-g‘arbiy Baqtriyaning sharqiy qismida joylashgan deb hisoblash mumkin. Surxondaryoning o‘rta oqimida, Surxon vohasining markaziy qismida joylashgan, ellinizm davrida ham mavjud bo‘lgan arxeologik yodgorliklardan biri **Maydatepa** manzilgohi hisoblanadi[17]. Ushbu manzilgoh boshqacha nom bilan **Bandixon I** deb ham yuritiladi. Maydatepaning umumiy maydoni 1,6 gektar, ya’ni o‘lchamlari 250 x 70 m ni tashkil etadi.

Bandixon hududidagi ellinizm davriga oid yana bir aholi manzilgohi bu – **Yalangto‘shtepadir**[23]**.** Bu yodgorlik katta maydonga ega bo‘lib(30 gektar), butun Surxon vohasining eng yirik manzilgohlari qatoriga kiradi.

Hozirgi Qumqo‘rg‘on va Jarqo‘rg‘on tumanlari hududi ham Surxondaryoning quyi oqimiga kiradi va bu yerlarda ham ellenistik aholi punktlari aniqlangan. Bu hududda 2 ta arxeologik yodgorlik asosiy o‘rin egallaydi. Bular: **Karvon-Tushti** va **Xayitobodtepa.**

Termiz shahridan 20 km janubi-sharqda, Amudaryo sohilida joylashgan **Ayritom** arxeologik yodgorligi ham ellinizm davrida faoliyat yuritgan manzilgohlardan biridir. Ushbu aholi manzilgohi ham Eski Termiz kabi Amudaryo bo‘yidagi Baqtriyaning janubiy hududlari bilan a’loqani ta’minlovchi joy bo‘lgan. Ayritom yodgorligining umumiy maydoni hozirgi kunga qadar aniqlanmagan.

Termiz tumani hududidagi boshqa bir ellinistik aholi manzilgohi bu **Xo‘ja-Gulsuar** hisoblanadi. Bu yodgorlikning umumiy maydoni 1 gektarni tashkil etadi. Ushbu manzilgoh ohaktosh koni yaqinida joylashgan bo‘lib, yaqin-atrofdagi muhim joylar, Ayritom va Eski Termizga me’moriy bezaklar uchun xomashyo yetkazib berishda muhim hisoblangan.

Xotin-Rabot Termiz tumani hududida joylashgan eng sharqiy hududlardagi ellinizm davriga oid arxeologik yodgorlikdir. Bu yodgorlik Xo‘ja-Gulsuardan 13 km masofada,

Amudaryoga yaqin joyda joylashgan. Ushbu manzilgoh ham uncha katta bo‘lmagan(2 gektar), bu yerdan ham Yunoniston uslubida ishlangan me’morchilik belgilari aniqlangan.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqorida joylashuvi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan arxeologik yodgorliklarning aksariyati joylashuvi, tuzilishi va maydoni kabi jihatlarini hisobga olinsa, muhim ahamiyat kasb etgan. Shimoli-g‘arbiy Baqtriya(Surxon vohasi) hududi Qadimgi Baqtriya o‘lkasining shimoliy qo‘shni hududlarga chiqishi uchun asosiy tayanchi bo‘lgan. Aynan hozirgi O‘zbekistonning eng janubidagi Surxondaryo viloyati hududi janubdan Amudaryo bilan chegaralanganligi va o‘troq madaniyat va shimolda yashaydigan ko‘chmanchi xalqlar madaniyatining o‘zaro to‘qnashuvini ifoda etadi.

Shimoli-g‘arbiy Baqtriyada shimoldagi ko‘chmanchi aholi tomonidan vujudga keltirilishi mumkin bo‘lgan xavfni bartarash etish maqsadida eng shimoliy chegara bo‘lmish Boysuntog‘ tizmalarining tog‘ va tog‘oldi hududlarida harbiy istehkomlar joylashuvini, Surxon vohasining ichki qismida joylashgan kichik, sodda tuzilishga ega bo‘lgan aholi manzilgohlarini hamda yirik suv havzalari bo‘yida yoki ular yaqinida barpo etilgan shaharlarni ko‘rishimiz mumkin.

Ellinizm davrida faoliyat yuritgan, shimoli-g‘arbiy Baqtriya arxeologik yodgorliklari o‘z davri uchun muhim bo‘lgan aholi zichligi va uning xo‘jaligi, qaysi hududlar o‘sha vaqtlarda va hozir ham gullab-yashnagani, shuningdek, ellinizm davrida hayot yaxshi shakllanib, hozirda esa aholi yashashi va xo‘jalik yuritishi uchun yaroqsiz holatga kelgan joylar haqida dastlabki taassurot hosil bo‘lishida katta yordamchi bo‘la oladi.

Keyingi tadqiqotlar davomida eng so‘nggi yutuqlarga ega texnologiyalar va samarali metodlar orqali ellinizm davri bo‘yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilishi nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Абдуллаев К. Раскопки на Паенкургане в Байсунском районе (Северная Бактрия). // Археологические исследования в Узбекистане 2000. Самарканд 2001. –С. 25-30.
2. Абдуллаев К, Алмазова Н. Каменные орудия античной эпохи на примере Паенкургана (Северная Бактрия). // Материалы по античной культуре Узбекистана. К 70-летию Геннадия Андреевича Кошеленко. Самарканд 2005. –С. 16-24.
3. Аннаев Т., Аннаев Дж., Абдурахманов А., Каюмов У. Археологические работы на Талитагора (Результаты работ 2013-2014 гг.) // АИУз. Вып.10. Самарканд, 2016. –С. 71-72.
4. Аннаев Т.Дж., Базаров Б.Б., Аннаев Дж.Т. Археологические работы на Паенкургане в 2022 г. // Археологические исследования в Узбекистане 2022. Вып. 15. Самарканд 2023. –С. 41-46.
5. Двуреченская Н.Д., Шайдуллаев Ш.Б., Двуреченский О.В., Двуреченская Т.О., Гладченков А.А., Бельш О.В., Шейко К.А., Базаров Б.Б. Археологические работы экспедиции на памятнике Узундара в Байсунском районе и полевых исследований в его округе в 2022 году. // Археологические исследования в Узбекистане 2022. Вып.15. Самарканд 2023. –С.73-78.
6. Ильясов Дж.Я. Раскопки на северном некрополе Дабиль-Кургана. // МТЭ вып. 8. Елец 2011. –С. 122-152.
7. Ильясов Дж. Я., Арипджанов О. Ю. Археологические исследования на городище Дальверзинтепа в 2022 году. // Археологические исследования в Узбекистане 2022. Вып.15. Самарканд 2023. –С.79-84.
8. Мокробородов В. В. Гишттепа в кишлаке Пашхурт предварительние итоги исследований 2004-2006 гг. // Transoxiana-Mavarannahr. Ташкент, 2007. С. 148-155.

9. Пидаев Ш., Лериш П., Папахристу О. (Самарканд, Париж). Новые данние о раскопках в Старом Термезе // Археологические исследования в Узбекистане 2000. Самарканд 2001. –С. 105-113.
10. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Дальверзинтепе. Кушанский город на юге Узбекистана. Ташкент “Фан” 1978.
11. Ртвеладзе Э.В. Кампыртепа – Александрия Оксианская: Город-Крепость на берегу окса в эллинистическое и постэллинистическое время (конец IV в. До н.э. – I в. До н.э.) // МТЭ. Археологические исследования Кампыртепа. Ташкент «Саньат» 2017.
12. Ртвеладзе Э.В. Фортификационная система эллинистических государств Бактрии. Великая бактрийская стена Антиоха I и Евтидема I. // Scripta Antiqua том 10. Москва 2022. –С. 15-34.
13. Сапрыкина И.А. Аналитические исследования изделий из металла из раскопок крепости Узундара 2013–2019 гг.:Основные направления и перспективы. // Материалы археологических исследований эллинистической крепости Узундара в 2021 году. Бактрия. Москва 2023. –С. 212-219.
14. Тихонов Р.В. Эллинистические поселения Бактрии: к вопросу о типологии по археологическим материал. // «Вопросы истории» ежемесячный журнал 2020. –С. 139-146.
15. Шейко К. Крепость Мунчак-тепа в Сайробе. // МТЭ вып. 8. Елец 2011. –С. 227-244.